

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

XODJAYEVA NODIRA ODILOVNA

**TAKRORIY EKIN SIFATIDA SOYANING YANGI NAVLARINI
PARVARISHLASHDA TURLI SUG‘ORISH USULLARINI
SAMARADORLIGINI ANIQLASH (Andijon viloyati och tusli bo‘z tuproqlar
misolida)**

06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA
DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation’s abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Xodjayeva Nodira Odilovna

Takroriy ekin sifatida soyaning yangi navlarini parvarishlashda turli sug‘orish usullarini samaradorligini aniqlash (Andijon viloyati och tusli bo‘z tuproqlar misolida)..... 3

Ходжаева Нодира Одиловна

Определение эффективности различных способов орошения при выращивании новых сортов сои в качестве повторной культуры (на примере светлых сероземов Андижанской области)..... 21

Khodjayeva Nodira Odilovna

The identification of the effectiveness of various irrigation methods in the cultivation of new soybean varieties as a summer crop (case study of light sierozem soils of Andijan region)..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

XODJAYEVA NODIRA ODILOVNA

**TAKRORIY EKIN SIFATIDA SOYANING YANGI NAVLARINI
PARVARISHLASHDA TURLI SUG‘ORISH USULLARINI
SAMARADORLIGINI ANIQLASH (Andijon viloyati och tusli bo‘z tuproqlar
misolida)**

06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA
DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Qx953 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz tilida (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psuvniti.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyanet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Isashov Anvarjon, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor.
Rasmiy oponentlar:	Norqulov Usmonqul, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor Kamilov Baxtiyor Sultanovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor
Yeta kchi tashkilot:	Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti.

Dissertatsiya himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "18" "03", soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika M.F.Y., O'zPITI ko'chasi, PSUYEAITI. Tel.: (+99878) 150-62-84; faks: (99871) 150-61-37; E-mail: paxtauz@mail.ru

Dissertatsiya bilan Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (186 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika M.F.Y., O'zPITI ko'chasi, PSUYEAITI. Tel (+99878) 150-62-84; faks: (+99878) 150-61-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "5" "03" kuni tarqatildi.

(2025-yil "5" "03" dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi)



Sh.Nurmatov,
beruvchi ilmiy
q.x.f.d., professor

F.M.Xasanova,
beruvchi ilmiy
kotibi, q.x.f.n.,
professor

J.X.Axmedov,
beruvchi ilmiy
qoshidagi ilmiy
seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi).

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda dunyo aholisining ko'payishi oziq-ovqat jumladan, o'simlik moyi va oqsilli mahsulotlarga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Dunyoda soya bozori chorvachilik, biodizel va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi hisobiga ishonchli tarzda o'sib bormoqda. "So'nggi o'n yil ichida soyaning yalpi hosili 46,1 foizgacha o'sib, 2023 yilga kelib 399,5 million tonnani tashkil etdi. Hozirgi kunda soya mahsulotini ishlab chiqarish salmog'ini o'sishi ekin maydonlarining ko'payishi yoki hosildorlikni oshirish orqali ta'minlanadi. 2022-2023 yillar yakunlari bo'yicha dunyo bo'yicha soyadan olingan don hosili 370,24-399,5 mln tonnani tashkil etib, asosiy yuqori hosildorlik Braziliya, AQSH, Argentina davlatlarida kuzatish mumkin"¹. Kuzgi bug'doydan so'ng takroriy ekin sifatida soyaning yangi navlarini yetishtirish agrotexnologiya elementlarini takomillashtirish, sug'orish usullari va tartiblarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Dunyo mamlakatlarida qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda suv tanqisligi muammosi kundan kunga ortib bormoqda. Dukkakli-don ekinlardan yuqori va sifatli, tannarxi past hosil yetishtirishda parvarishlash agrotexnologiya elementlarini takomillashtirish yo'li bilan sug'orishda resurstejamkor texnologiyalarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Suv tanqisligi va anomal issiq harorat muammolarini bartaraf etishda soya navlarini sug'orish usullari, me'yorlari va muddatlarini ildiz tizimi tarqalgan tuproq qatlamini hisobga olgan holda to'g'ri belgilash maqsadga muvofiq bo'lib, takroriy ekin sifatida parvarishlangan soya navlarini maqbul sug'orish usullari va tartiblari hamda suv iste'molini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish, aholini ekologik toza oziq-ovqat, o'simlik oqsili, moyi va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabini to'liq qondirish hamda sug'orishni resurstejamkor texnologiyalar asosida olib borish zarur hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi farmonining 6-bandida "...atrof-muhitni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini oshirish va suv tejavchi texnologiyalarni joriy etish"² muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan. Shu bois, takroriy ekin sifatida ekiladigan ekinlarni sug'orishda suv tejamkor texnologiyalarni qo'llab, sug'orish suvidan samarali foydalanish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyuldagi PQ-5742 son "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 11-dekabrda PQ-4919 son "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2022-yil 1-martda PQ-144 son "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

¹<https://vostokgosplan.ru/wp-content/uploads/soja-v-mire-i-rossii-proizvodstvo-vnutrennee-potreblenie-vneshnjaja-torgovlja.pdf>

² <http://lex.uz/docs/-4567334>

to'g'risida"gi, hamda 2023-yil 5-apreldagi PQ-113 son "2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sug'oriladigan maydonlarda soyani asosiy hamda takroriy ekin sifatida etishtirish va sug'orish usul va muddatlari bo'yicha xorijiy davlatlarda G.Balakay, V.Borodichev, M.Litov, R.Lavrienko, A.Babich, A.Kuzin, V.Melixov, E.Ushakova, O.Belik, M.Lgov kabi olimlar, mamlakatimizda esa X.Atabayeva, D.Yormatova, A.Shamsiyev, U.Norqulov, N.Xalilov, S.Isayev, I.Israilov, U.Ne'matov, M.Mannopova, M.Sattorov, A.Iminov, A.Duysenov, O.Sottorov kabi olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy ishlar olib borilgan.

Lekin, bugungi kunda nafaqat respublikamizda balki, butun dunyoda kutilayotgan suv taqchilligi sharoitida soya navlarini kuzgi bug'doydan bo'shagan maydonlarda takroriy yetishtirishda maqbul sug'orish usul va tartiblarini ishlab chiqish bo'yicha yetarli ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan Oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kirgan "Suvtejamkor sug'orish texnologiyalarini yanada takomillashtirish" mavzusi doirasida bajarilgan (2020-2022 yy).

Tadqiqotning maqsadi. Andijon viloyatining sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida kuzgi bug'doydan keyin takroriy ekilgan soyaning Vilana, Slaviya va To'maris navlarini turli sug'orish usullariga bog'liq holda o'sishi, rivojlanishi, don hosili hamda sifatiga ta'sirini o'rganish va suvdan samarali foydalanish bo'yicha ishlab chiqarishga tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Andijon viloyati och tusli bo'z tuproqlari sharoitida takroriy ekilgan soyaning Vilana, Slaviya va To'maris navlarini parvarishlashda

turli sug'orish usullarini tuproqning agrofizikaviy xossalariga ta'sirini o'rganish va baholash;

och tusli bo'z tuproqlar sharoitida turli sug'orish usullarini maqbul sug'orish muddatlari, soni, davomiyligi, mavsumiy sug'orish meyorlarini aniqlash;

turli sug'orish usullarida soya navlarining suv iste'moli hamda soyadan bir sentner hosil olish uchun sarflangan suv sarfini aniqlash;

turli sug'orish usullarini takroriy ekilgan soya navlarining ko'chat qalinligi, o'sishi va rivojlanishiga ta'sirini o'rganish;

turli sug'orish usullarini soya navlarining hosildorligi va donning sifat ko'rsatkichlariga tasirini aniqlash;

takroriy ekilgan soya navlarining sug'orish usullari bo'yicha iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Andijon viloyati och tusli bo'z tuproqlari, soyaning Vilana, Slaviya va To'maris navlari olingan.

Tadqiqotning predmeti tuproqlarning agrofizik xossalari, takroriy ekin soyani parvarishlashda turli sug'orish usullari, tartiblari, sug'orish me'yori, muddatlari, suv iste'molini o'simlikning o'sishi-rivojlanishi va don hosildorligiga ta'sirini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda o'simlikning biometrik o'lchovlari, tuproq va o'simlik namunalarining laboratoriya tahlillari, fenologik kuzatuvlar "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari", soya donidagi oqsil miqdorini "Don va uning tarkibidagi oqsil miqdorini aniqlash uslublari" asosida bajarilgan hamda tadqiqotlar natijalaridan olingan ma'lumotlar B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» uslubi bo'yicha matematik-statistik tahlil qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarda takroriy muddatlarda yetishtirilgan soyaning To'maris, Vilana va Slaviya navlarini tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibda tomchilatib sug'orish usuli (TSU) yordamida sug'orilganda tuproqning suv-fizikaviy xossalarning yaxshilanishi isbotlangan;

tomchilatib sug'orish usuli (TSU) yordamida 2-7-2 tizimda sug'orilganda an'anaviy usullarda sug'orilganga nisbatan 1 sentner hosil olish uchun sarf qilingan suvning miqdori soyaning To'maris navida 63,0-82,6 m³ gacha, soyaning Vilana navida 58,4-79,0 m³ gacha hamda soyaning Slaviya navida 54,6-75,2 m³ gacha kam suv sarflangani aniqlangan;

soyaning takroriy ekin sifatida yetishtirishda, o'simlik ildiz tizimi asosiy tarqalish chuqurligini 45-50 sm bo'lishi hisobga olingan holda tomchilatib sug'orishda sug'orish 30-50-50 sm qatlamlarda namlash maqbul ekanligi aniqlangan;

soya navlarini sug'orish oldi tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibida tomchilatib sug'orish usulida sug'orilganda, sug'orishni an'anaviy hamda egiluvchan quvurlar yordamida amalga oshirilgan usullarga nisbatan rentabellik darajasi 16,2% gacha yuqori bo'lganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida takroriy ekin sifatida soyaning To'maris, Vilana va Slaviya navlarini parvarishlashda tomchilatib sug'orish texnologiyasi asosida sug'orish oldi tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibda tuproqning 0-50 sm hisobiy qatlami bo'yicha 2-7-2 tizimda 11 marta sug'orish o'tkazilib, bunda har galgi sug'orish me'yori 115-140 m³/ga, mavsumiy sug'orish me'yori 1295-1380 m³/ga gacha bo'lishi aniqlangan;

Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida takroriy ekin sifatida soyaning To'maris, Vilana va Slaviya navlarini parvarishlashda tomchilatib sug'orish usuli asosida sug'orish oldi tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibda sug'orilganda tuproqning hajm massasi haydov (0-30 sm) qatlamda

nazoratga nisbatan tegishli 0,026-0,036 g/sm³, 0,038-0,048 g/sm³ va 0,029-0,036 g/sm³ gacha kamayishi aniqlangan;

Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida takroriy ekin sifatida soyaning To'maris, Vilana va Slaviya navlarini parvarishlashda sug'orish oldi tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibida, sug'orishni tomchilatib sug'orish usuli yordamida amalga oshirilganda boshqa sug'orish usullari qo'llanilganga nisbatan o'simlikning bo'yi 0,9-9,1 sm gacha, hosil shoxlari 0,1-0,3 donagacha, dukkaklar soni 0,5-3,2 donagacha, 1000 dona don vazni 1,5-6,5 grammgacha, don tarkibidagi moy miqdori 0,5-1,1% ga yuqori bo'lishi isbotlangan.

Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida Soyanning To'maris, Vilana hamda Slaviya navlarini parvarishlashda sug'orish oldi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-80-70% ni, sug'orishni tomchilatib sug'orish usuli asosida amalga oshirilishi natijasida sug'orishni an'anaviy hamda egiluvchan quvurlar yordamida amalga oshirilganga nisbatan qo'shimcha 4,2-6,2 s/ga gacha don hosili, sof foyda 448,0-1678,3 ming so'mgacha, rentabellik darajasi 16,2% gacha yuqori bo'lishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining dala va laboratoriya usullaridan foydalangan holda matematik ishlovdan o'tkazilganligi hamda olingan nazariy natijalarni amaliy ma'lumotlarda tasdiqlanganligi, tajriba natijalarini mahalliy va chet el ilmiy tadqiqotlari bilan taqqoslanganligi, olingan ma'lumotlar mutaxassislar tomonidan ijobiy baholangan va tadqiqot natijalari ishlab chiqarish sharoitida keng joriy etilganligi, Respublika va Xalqaro ilmiy konferensiyalarda ma'ruzalar qilinganligi, shuningdek, ilmiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning ishonchliligini asoslaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida takroriy ekin sifatida yetishtirilgan soya navlarini ildiz tarqalgan faol qatlamida sug'orishdan oldingi CHDNSga nisbatan tuproq namligi, sug'orish sonlari, muddatlari, har galgi sug'orish me'yorlari va mavsumiy sug'orish me'yorlari bo'yicha ilmiy ma'lumotlar to'planganligi hamda don hosili olish uchun sarflangan suv miqdori, o'simliklarning suv iste'moli ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitidagi fermer xo'jaliklarida takroriy ekin sifatida ekilgan soyaning Vilana hamda Slaviya navlarini mahalliy To'maris naviga taqqoslangan holda turli sug'orish usul va tartiblarida o'sishi, rivojlanishi hamda hosildorligiga ta'sirini aniqlanganligi, fermer xo'jaliklarida joriy etilib, yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlar sharoitida takroriy ekin sifatida yetishtiriladigan soya navlarining sug'orish usullari bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

"Takroriy soya navlarining tomchilatib sug'orish usulida parvarishlash" mavzusida tavsiyanoma ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024 yil 27-mart 05/05-04-104-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyanoma qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat olib borayotgan fermer xo'jaliklari,

agroklasterlar va tomorqa yer egalari uchun qo‘llanma sifatida xizmat qilmoqda;

soya navlarini parvarishlashda tomchilatib sug‘orish usuli asosida sug‘orish oldi tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibda o‘svuv davri davomida 11 marta (urug‘ suvi bilan), mavsum davomida 1295-1380 m³/ga me’yorda sug‘orish Andijon viloyatining Izboskan tumanida joylashgan “Andijon zamin sardori” fermer xo‘jaligining 10,5 ga, “Yangi zamon agro sanoat” fermer xo‘jaligining 12,0 ga, “Polvonov Yo‘ldashali nihollari” fermer xo‘jaligining 11,2 ga, jami 33,7 ga maydonda joriy qilingan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 27-mart 05/05-04-104-son ma‘lumotnomasi). Natijada tomchilatib sug‘orish usuli (TSU) asosida sug‘orish natijasida an’anaviy usullarga nisbatan mavsumiy sug‘orish suvlarini 727,6-940,1 m³ gacha, 1 sentner hosil yetishtirish uchun suv sarfini 54,6-82,6 m³ gacha tejalishiga erishilgan hamda qo‘shimcha 5-6 s/ga gacha don hosili olingan;

soyaning navlarini parvarishlashda tomchilatib sug‘orish usuli asosida sug‘orish oldi tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibda o‘svuv davri davomida 11 marta (urug‘ suvi bilan), mavsum davomida 1295-1380 m³/ga me’yorda sug‘orish Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumanida joylashgan “Oq suv eksperimental” fermer xo‘jaligida 11,6 ga, “Muruvvatli Mahmudjon” fermer xo‘jaligining 11 ga, “O‘rinboev Sobir sahovati” fermer xo‘jaligining 10,2 ga, jami 32,8 ga maydonda joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 27-mart 05/05-04-104-son ma‘lumotnomasi). Natijada, tomchilatib sug‘orish usuli (TSU) asosida sug‘orilganda, nazorat variantlarga nisbatan qo‘shimcha 5-6 s/ga gacha don hosili olinib, 2300,0 ming so‘mgacha sof foyda olingan va rentabellik darajasi 20-25 foizgacha yuqori bo‘lishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dala va ishlab chiqarish tajribalari har yili O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Bilim va innovatsiyalar milliy markazi va Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutining mutaxassislaridan iborat maxsus aprobatsiya komissiyasi a‘zolari tomonidan ijobiy baholangan hamda tadqiqot natijalarining yillik hisobotlari institutining uslubiy va ilmiy Kengashlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy maqola va 1 ta tavsiyanoma chop etilgan, shulardan, ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan 2 tasi respublika, 1 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obykti va predmetlari tavsiflangan. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ilmiy tilda yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning

tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Soya navlarini yetishtirishda sug'orishlar bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida mavzu bo'yicha o'tkazilgan ilmiy-tadqiqotlarning natijalari haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, qishloq xo'jalik ekinlarida suv tejamkor tomchilatib sug'orish usulini qo'llash, mavsumiy va sug'orish me'yorlarini belgilash va soya o'simligining o'sib-rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri bo'yicha olingan mahalliy va xorijiy olimlarning ma'lumotlari batafsil bayon qilingan. Adabiyotlar sharhining xulosa qismida qisqa tarzda bu muammoni o'rganishni davom ettirish lozimligi, an'anaviy va suv tejamkor tomchilatib sug'orish usullarining samaradorligini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligi to'g'risida xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o'tkazish sharoiti va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajriba o'tkazilgan Andijon viloyatining tuproq-iqlim sharoiti, tajriba o'tkazish tizimi va fenologik kuzatuvlar o'tkazish uslublari, laboratoriya tahlillarini o'tkazish uslublari, biometrik kuzatuvlar hamda soyaning mahalliy To'maris, xorijiy Vilana va Slaviya navlarining biologik tavsiflari hamda o'tkazilgan agrotexnik tadbirlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.



Dala tajribalari 2020-2022-yillarda Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani “Oq suv eksperimental” fermer xo'jaligida o'tkazilib, iqlim sharoiti soya navlarini yetishtirishga qulay xisoblanadi.

Tadqiqot olib borilgan 2020-2022 yillar mobaynida iyun oyida havo harorati 24,5-27,1 °C gacha bo'lganligi natijasida parvarishlangan kuzgi bug'doyning hosilini to'liq pishib yetilishi va takroriy ekinlarni parvarishlash uchun maydonda chuqur ishlov olib borish uchun yengil sug'orishni, iyul oyining havo harorati 28,4 dan 29,3 °C gacha ko'tarilib borishi sababli takroriy ekinni urug'ini to'liq undirib olish uchun urug' suvi berilishini taqozo etgan. Yilning qolgan avgust oyida havo harorati 26,2–27,7 °C gacha, sentyabr oyida 20,7–22,1 °C gacha o'zgarib borishi ob-havoning mo'tadil kelishi, parvarishlangan ekinlarning amal davri davomida yaxshi o'sib rivojlanishi uchun yetarli darajada bo'lgan. Yilning oktyabr oyida havo xaroratini 13,1-15,4 °C gacha o'zgarib turishi yetishtirilgan hosilni yig'ishtirib olishiga zamin yaratilgan (1-rasm) .

Tadqiqot olib borilgan yillar mobaynida yog'ingarchilik miqdori takroriy ekinning amal davri davomida 16,8-20,2 mm gacha o'zgarib borishi, iyun, iyul, avgust hamda sentyabr oylarida esa ko'p yillik kuzatuvlardagi ma'lumotlarga nisbatan o'zgarmagani, yog'ingarchilik oktyabr oyining ikkinchi va uchinchi dekadasida 7,9-15,6 mm bo'lganligi kuzatilgan.

Havoning nisbiy namlik ko'rsatkichlari takroriy ekin soyaning amal davri mobaynida o'rtacha oylar bo'yicha 59,0-60 % gacha o'zgarib borgani ma'lum bo'lgan.

Tajriba o'tkazilgan maydon tuproqlari och tusli bo'z tuproqlar bo'lib, mexanik tarkibiga ko'ra og'ir qumoq, sizot suvlari sathi 3,5–5,0 m chuqurlikda joylashgan, o'zlashtiriladigan fosfor va almashinuvchi kaliy bilan kam darajada ta'minlangan.



1-rasm. Andijon viloyati ob-havoni kuzatish markazi ma'lumotlari (2020-2022-y.y.)

Dala tajribalarida soyani nazorat sifatida qabul qilingan To'maris navini Vilana hamda Slaviya navlariga taqqoslab o'rganilgan.

Soya navlarini parvarishlashda sug'orishlar CHDNSga nisbatan 70-75-65% va 70-80-70% tartibida sug'orish oldi tuproq namligi bo'yicha o'tkazilgan. Bunda, egatlab va egiluvchan quvur yordamida sug'orilgan variantlarda tuproqning namligi 50-70-50 sm qatlamlarida, tomchilatib sug'orish usuli qo'llanilganda esa 30-50-50 sm qatlamlarda hisobga olingan tartibda sug'orilgan. Tajriba 9 ta variantdan iborat bo'lib, to'rtta qaytariqda, bir yarusda joylashtirilib, har bir variantdagi egat uzunligi 100 metr, egat kengligi 0,9 m va qatorlar soni 8 ta bo'lib shularning 4 tasi himoya qatori hisoblanadi, 1 ta variantning umumiy maydoni 720 m² ni, hisobiy maydoni esa 360 m² ni tashkil etgan. Umumiy tajriba maydoni 2,592 ga ni tashkil etgan.

Tadqiqotlarda o'simlik va tuproq namunalarini olish, laboratoriya tahlillari, fenologik kuzatuvlar va biometrik o'lchovlar "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari", tuproqning agrofizikaviy va agrokimyoviy tahlillari "Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах" uslubiy qo'llanmalari asosida olib borilgan.

Don sifat ko'rsatkichlari Germaniyada ishlab chiqarilgan Granolyser HL analizatori yordamida laboratoriya sharoitida aniqlangan. Iqtisodiy samaradorlik N.A.Baranov uslubiy qo'llanmalari asosida olib borilgan, olingan ilmiy natijalarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturi va B.A.Dospexovning "Методика полевого опыта" uslubiy qo'llanmasi asosida amalga oshirilgan. Tuproq tarkibidagi gumus miqdori I.B.Tyurin, azot va fosforning umumiy miqdori L.F.Gritsenko va M.M.Malsevalarning takomillashgan usulublarida, nitratli azot Grandval-Lyaju, o'zlashtiriladigan fosfor B.P.Machigin, almashinuvchi kaliy miqdori P.V.Protasov usulida aniqlangan.

Sug'orish davrida berilgan suv miqdorini aniqlashda asosiy suv tarqaladigan o'qariqqa "Chipoletti", egatga berilgan suvni aniqlashda 90 °C Tomson suv o'lchagichi yordamida amalga oshirilgan. Nazariy sug'orish me'yorlarini aniqlashda S.N.Rijov formulasidan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning **“Soyani turli usulda sug‘orishni tuproqning agrokimyoviy hamda agrofizikaviy xossalriga ta’siri”** deb nomlangan uchinchi bobida takroriy ekin soyaning sug‘orish usullarini tuproqning agrokimyoviy xususiyatlariga, tuproqning hajm massasi, g‘ovakligi, donadorligi, suv o‘tkazuvchanligi, cheklangan dala nam sig‘imiga ta’siri to‘g‘risidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Izlanishlarda tajriba maydonining dastlabki ozuqa moddalarni tuproqdagi holati bo‘yicha qilingan tahlili natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, tuproqning haydov (0-30 sm) qatlamida gumus miqdori 0,820-0,835% ni, umumiy azot 0,086-0,089% ni, umumiy fosfor 0,092-0,096% ni, ozuqa moddalarning harakatchan shakli nitratli azot 13,2-15,3mg/kg ni, fosfor 20,2-22,7 mg/kg ni, kaliy miqdori esa 185-195 mg/kg ni tashkil etgani aniqlangan.

Takroriy ekin sifatida soyaning mahalliy To‘maris, xorijdan olib kelingan Vilana hamda Slaviya navlarini parvarishlangan maydonlarda tuproqdagi ozuqa moddalarning miqdorlari deyarli o‘zgarmaganligi, lekin shu navlarni parvarishlashda CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibda, tomchilatib sug‘orish usuli (TSU) asosida sug‘orilgan maydonlarda CHDNSga nisbatan 70-75-65% tartibda, sug‘orishni egatlab hamda eguluvchan quvurlar yordamida amalga oshirilgan variantlarga nisbatan sezilarli ravishda tuproqdagi ozuqa moddalarni saqlab qolinganligi kuzatilgan.

Soyani To‘maris navini parvarishlashda sug‘orishni CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibda, tomchilatib sug‘orish usuli (TSU) asosida sug‘orilgan 3-variantda soyaning amal davrining oxiriga kelib, tuproqdagi ozuqa moddalar miqdori yillar mobaynida haydov (0-30 sm) qatlamda gumus miqdori 0,002% gacha, azot miqdori 0,009% gacha, harakatli shakllardan nitratli azot 1,5 mg/kg gacha, fosfor 2,3 mg/kg gacha, kaliy 5 mg/kg gacha, soyani Vilana navini parvarishlangan 6-variantda gumus 0,002% gacha, azot 0,009% gacha, nitratli azot 1,5 mg/kg gacha, o‘zlashtiriladigan fosfor 2,3 mg/kg gacha, almashinuvchi kaliy 5 mg/kg gacha yuqori bo‘lganli aniqlangan bo‘lsa, soyaning Slaviya navi parvarishlangan maydonda ham shunday natijalar qayd etilgan.


Soya navlarini yetishtirishda sug‘orishni CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibda, tomchilatib sug‘orish usuli (TSU) asosida olib borilganda tuproqning hajm massasi haydov (0-30 sm) qatlamda nazoratga nisbatan To‘maris navi parvarishlangan maydonda 0,026-0,036 g/sm³ gacha, Vilana navi parvarishlangan maydonda 0,038-0,048 g/sm³ gacha, Slaviya navi parvarishlangan maydonda esa 0,029-0,036 g/sm³ gacha kamayishi, g‘ovakligini esa navlarga mos ravishda 1,0-1,3; 1,4-1,8; 1,1-1,4% gacha ortib yaxshilanishi aniqlangan (1-jadval).

Olib borilgan tajriba maydonidagi tuproqning suv o‘tkazuvchanligi soyaning amal davrining boshida yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lsa, olib borilgan agrotexnik tadbirlar hamda turli usul va tartibda sug‘orish natijasida amal davrining oxiriga kelib suv o‘tkazuvchanlik darajasi pasayganligini kuzatilgan.

Takroriy ekin sifatida soya parvarishlashda turli usulda sug'orishni tuproqning hajm massasi hamda g'ovakligiga ta'siri, g/sm³ (2020 y.)


Qatlam-lar, sm	Dast-labki	Amal davri oxiri								
		1-variant	2-variant	3-variant	4-variant	5-variant	6-variant	7-variant	8-variant	9-variant
hajm massasi, g/sm ³										
0-30	1,33	1,37	1,38	1,34	1,37	1,39	1,34	1,38	1,38	1,35
30-50	1,39	1,42	1,42	1,40	1,41	1,42	1,40	1,42	1,43	1,40
g'ovaklik,%										
0-30	50,6	49,1	49,0	50,3	49,2	48,6	50,4	49,0	48,9	50,2
30-50	48,5	47,6	47,5	48,2	47,7	47,2	48,3	47,4	47,2	48,0

Sug'orishni CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibda, tomchilatib sug'orish usuli (TSU) asosida sug'orilib, To'maris navi parvarishlanganda tuproqning suv o'tkazuvchanligi egatlab sug'orilganga nisbatan 87,0-106,0 m³/ga gacha, egiluvchan quvurlar yordamida sug'orilganga nisbatan esa 58,0-82,0 m³/ga gacha, Vilana navi parvarishlanganda bu ko'rsatkichlar nazorat variantlarga nisbatan mos ravishda 76,0-110,3; 50,0-85,3 m³/ga gacha, Slaviya navi parvarishlanganda esa 78,0-99,0; 31,0-36,6 m³/ga gacha yuqori bo'lishi aniqlangan (2-rasm).



2-rasm. Takroriy ekin soya parvarishlangan tajriba dalasi tuprog'ining suv o'tkazuvchanligi, m³/ga(2020-y).

Takroriy ekilgan soya tajriba dalasi tuprog'ining cheklangan dala nam sig'imi 2020-2022 yillarda mavsum boshida 0-50 sm qatlamda 22,1-22,2-22,2%, 0-70 sm qatlamda 21,8-21,9-21,9%, 0-100 sm qatlamida 21,4-21,5-21,4% ni tashkil etgan (3-rasm).



3-rasm. Tuproqning cheklangan dala nam sig'imi, % (2020-2022 yillar)

Kuzgi bug'doyning hosilini yig'ishtirib olingandan so'ng parvarishlangan takroriy ekin sifatida soyaning navlarini yetishtirish jarayonida tajriba maydonida sizot suvlari inng yer ustki qismiga nisbatan joylashish chuqurligi tadqiqot olib borilgan 2020-2022 yillar mobaynida iyun oyida 3,24; 3,36; 3,3 metrni, iyul oyida 3,13; 3,19; 3,16 metrni (urug' suvi va birinchi sug'orish natijasida ko'tarilishi), avgust oyida 3,01; 3,06; 3,09 metrni tashkil qilgan yoki iyun oyiga nisbatan 0,23; 0,30; 0,21 metrgacha ko'tarilishi aniqlangan.

Keyingi oylarda sug'orish suvining kamroq berilishi yoki to'xtatilishi sizot suvlari sathining sezilarli darajada uzoqlashishi esa sentyabr hamda oktyabr oyida 3,21-3,26 metrgacha pasayishi kuzatildi. Olib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, tadqiqot yillari davomida o'rtacha mavsum davomida sizot suvlari nining sathi 3,01 metrgacha pasayishi, tebranish chegarasi esa 0,32 metrgacha bo'lishi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning **“Soya navlarini yetishtirishda maqbul sug'orish usullari va suv iste'moli ko'rsatkichlari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida takroriy ekilgan soya navlarini sug'orish muddatlari, soni, tizimi, davomiyligi, sug'orish oldi tuproq namligi, sug'orish va mavsumiy sug'orish me'yorlari hamda tajriba dalasining suv iste'moli bo'yicha ma'lumotlar bayon qilingan.

Tadqiqotlarda soyaning To'maris navini parvarishlashda sug'orish oldi tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-80-70% ni, 2-7-2 tizimda 11 marta sug'orishni tomchilatib sug'orish usuli yordamida amalga oshirilgan 3-variantda sug'orish me'yori sug'orish oldi tuproq namligiga hamda CHDNSga asosan olib borilganda 1-2 sug'orishda 132,4-136,8 m³/ga ni, 3-4-5-6-7-8-9 sug'orishda 118,4; 111,5; 110,9; 108,7; 110,1; 106,9; 104,7 m³/ga ni, amal davri oxiriga kelib, ya'ni pishish davrida 129,4-125,6 m³/ga ini, mavsumiy sug'orish me'yori 1295,4 m³/ga ni tashkil etib, bu

esa nazorat variantiga (1-var) nisbatan 876,4 m³/ga gacha, egiluvchan quvur yordamida sug'orilgan 2-variantga nisbatan esa 766,3 m³/ga gacha suvni iqtisod qilingani aniqlangan.

Xorijiy soyaning navlari orasida mavsumiy sug'orish miqdorlari deyarli katta farqlanmaganligi, lekin ekinlarni parvarishlashda sug'orish usullariga nisbatan keskin farqlanishi kuzatilgan. Soyanning Vilana navini parvarishlashda 727,6-933,8 m³/ga gacha hamda soyaning Slaviya navini parvarishlashda 794,3-962,2 m³/ga gacha kam bo'lishi aniqlangan.

Sug'orishni an'anaviy hamda egiluvchan quvurlar yordamida olib borilib, sug'orish oldi tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-75-65% tartibida 1-1-1 tizimda sug'orishlar soni 3 marta bo'lib, sug'orish davomiyligi 22-19-16 soatni, sug'orishlar orasidagi kunlar 18-31 kunlarni tashkil etib, mavsumiy sug'orish me'yori 2117,5-2342,7 m³/ga gacha o'zgarib borishi kuzatilgan. Shu navlarni sug'orish oldi tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-80-70%, sug'orishni tomchilatib sug'orish usuli yordamida amalga oshirilganda 2-7-2 tizimda 11 marta sug'orilib, sug'orish davomiyligi 12; 12; 8; 8; 8; 8; 8; 8; 8; 12; 11 soatni, sug'orishlar orasidagi kunlar 6; 5; 5; 5; 5; 5; 5; 5; 8; 8 kunni tashkil etib, mavsumiy sug'orish me'yorlari 1345,9-1380,5 m³/ga gacha o'zgarib borgani qayd etilgan.

2-jadval

Soya navlarining mavsumiy sug'orish me'yorlari va umumiy suvdan foydalanish miqdori hamda 1s don hosili uchun suv sarfi (2020-y.)

Variant. raqami.	Navlar	Tuproqdagi zaxira suvdan foydalanish, m ³ /ga	Mavsumiy sug'orish me'yori, m ³ /ga	Yog'ingarchilik miqdori, m ³ /ga	Jami foydalanilgan suv miqdori, m ³ /ga	O'rtacha hosil, s/ga	1 s don uchun sarflangan jami suv miqdori, m ³
1	To'maris	413	2171,8	168	2752,8	14,7	187,3
2		427	2061,7	168	2656,7	15,7	169,2
3		623	1295,4	168	2086,4	19,9	104,8
4	Vilana	420	2212,1	168	2800,1	16,4	170,7
5		434	2029,3	168	2631,3	17,5	150,4
6		609	1301,7	168	2078,7	23,3	89,2
7	Slaviya	402	2260,3	168	2830,3	17,4	162,7
8		417	2114,5	168	2699,5	18,1	149,1
9		612	1320,2	168	2100,2	23,9	87,9

Tadqiqotlarda soya navlarini egatlab sugʻorilgan variantlarda berilgan suv miqdori oʻrtacha 724,3-887,0 m³/ga ni, tuproqqa singigan suv miqdori 664,5-806,4 m³/ga ni hamda tashlamaga chiqqan suv miqdori 59,8-80,6 m³/ga ni tashkil etgan boʻlsa, soyani egiluvchan quvurlar yordamida sugʻorilgan variantlarimizda berilgan suv miqdori 711,3-860,3 m³/ga ni, tuproqqa singigan suv miqdori 652,6-782,1 m³/ga ni va tashlamaga chiqqan suv miqdori 57,6-78,2 m³/ga ni tashkil etgan.

Olingan natijalarga koʻra tashlamaga chiqqan suvning miqdori oʻrtacha hisobda 8-10 foizni tashkil etgan. Tomchilatib sugʻorilgan variantlarda esa tashlamaga suv isrofi boʻlmagani uchun berilgan suv miqdori tuproqda qolgan.

Soyaning mahalliy Toʻmaris navi va xorijiy Vilana, Slaviya navlarini parvarishlashda sugʻorish oldi tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibida, sugʻorishni tomchilatib sugʻorish usuli yordamida amalga oshirilgan variantlarda 1 sentner hosil olish uchun sarf qilingan suvning miqdori an'anaviy usulda sugʻorib parvarishlangan variantlarga nisbatan 54,6-82,6 m³ gacha kam suv sarflangani aniqlangan (2-jadval).

Jami foydalanilgan suv miqdori sugʻorish usullariga koʻra soyaning Toʻmaris navida 2086,4 m³/ga dan 2752,8 m³/ga gacha, xorijiy Vilana navida 2078,7 m³/ga dan 2800,1 m³/ga gacha, soyaning xorijiy Slaviya navida 2100,2 m³/ga dan 2830,3 m³/ga gacha oraliqda tebranganligi hamda ustunlik soyaning Slaviya navini sugʻorish oldi tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibda sugʻorilganda aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Soya navlarini turli usulda sugʻorishni oʻsimlikning oʻsish-rivojlanishi hamda hosildorligiga taʼsiri”** deb nomlangan beshinchi bobida takroriy ekilgan soya navlarining unib chiqishi, haqiqiy koʻchat qalinligi, soya navlarini turli usullarda sugʻorishning hosil elementlariga, 1000 dona urugʻ va don vazniga hamda hosildorligiga va moy miqdoriga taʼsiri toʻgʻrisidagi maʼlumotlar keltirilgan.

Izlanishlarda soyaning Toʻmaris, Vilana hamda Slaviya navlarini parvarishlashda sugʻorish oldi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-80-70% tartibida, sugʻorishni tomchilatib sugʻorish usuli yordamida amalga oshirilganda boshqa sugʻorish usullari qoʻllanilganga nisbatan urugʻlarni unib chiqishi 0,8-2,5% gacha yuqori boʻlishi qayd etilgan.

Soyaning Toʻmaris, Vilana hamda Slaviya navlarini parvarishlashda sugʻorish oldi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-80-70% tartibida, sugʻorishni tomchilatib sugʻorish usuli yordamida amalga oshirilganda boshqa sugʻorish (anʼanaviy hamda egiluvchan quvurlar yordamida) usullari qoʻllanilganga nisbatan oʻsimlikning koʻchat qalinligi yillar mobaynida 12,7-16,4 ming dona/ga gacha yuqori boʻlishi kuzatilgan.

Sugʻorish oldi tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-75-65% tartibida anʼanaviy va egiluvchan quvurlar yordamida va 70-80-70% tartibida tomchilatib sugʻorish usuli bilan parvarishlanganda takroriy ekilgan soya navlarining boʻyi va barglar soni tomchilatib sugʻorilgan variantlarda ortib borganligi, amal davri oxirida soyaning pishish davrida barglarning tabiiy toʻkilishi natijasida esa bargining kamayganligi kuzatilgan. Soyani 70-80-70% tartibda sugʻorilgan variantlarda

boshqa variantlarga nisbatan o'simlikda ko'proq barglar saqlanib qolganligi aniqlangan.

Soyaning To'maris, Vilana hamda Slaviya navlarini parvarishlashda sug'orish oldi tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibida, sug'orishni tomchilatib sug'orish usuli yordamida amalga oshirilganda, sug'orish oldi tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-75-65% tartibida egatlab va egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish usullari qo'llanilganga nisbatan o'simlikning bo'yi 0,9-9,1 sm gacha, hosil shoxlari 0,1-0,3 donagacha, dukkaklar soni 0,5-3,2 donagacha, bitta o'simlikdagi don soni 0,9-4,6 donagacha, 1000 dona don vazni esa 1,5-6,5 grammgacha yuqori bo'lishiga erishilgan (3-jadval).

3-jadval

Turli usulda sug'orishni o'simlikning soya navlarini o'sish va rivojlanishiga ta'siri (2020 y).

Variant raqami	01.09				01.10			Bitta o'simlikdagi don soni, dona	1000 dona don vazni, g
	O'simlik bo'yi, sm	SHoxi, dona	Guli, dona	Dukkaklar soni, dona	O'simlik bo'yi, sm	SHoxi, dona	Dukkaklar soni, dona		
1	61,8	1,8	5	16,3	79,6	2,4	21,4	45,2	106
2	63,4	1,9	5,1	16,6	81,4	2,5	22,8	46,1	108,2
3	69,7	2,1	5,5	18,1	88,7	2,7	24,6	49,8	111,2
4	72,6	2,1	5,1	16,7	93	2,8	24,6	52	121,9
5	73,1	2,2	5,2	17,1	94,1	2,9	25,8	53,5	122,8
6	78,7	2,3	5,5	19,2	95,4	3,1	26,8	55,9	128,4
7	73,1	2,1	5,2	17,1	93,9	2,8	25,1	52,9	124,3
8	74,2	2,2	5,2	17,5	95,4	2,9	25,8	53,6	125,3
9	76,1	2,3	5,6	19,6	96,3	3,0	26,3	54,5	126,8

Sug'orish usullarining takroriy ekilgan soyani To'maris, Vilana va Slaviya navlarini urug' hosiliga ta'siri o'rganilganda, sug'orish oldi tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-75-65% tartibda an'anaviy sug'orilgan variantlarda urug' hosili o'rtacha uch yilda tegishli 15,3-16,6-17,8 s/ga ni, CHDNSga nisbatan 70-75-65% tartibda egiluvchan quvurlar yordamida sug'orilganda 16,0-17,7-18,6 s/ga ni, CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibda tomchilatib sug'orilganda 20,2-22,8-23,7 s/ga ni tashkil qilganligi yoki CHDNSga nisbatan 70-75-65% tartibida egatlab va egiluvchan quvurlar yordamida sug'orilgan variantlarga nisbatan mos ravishda 0,7-4,9; 1,1-6,2 va 0,8-5,9 s/ga qo'shimcha don hosili olingan. (4-jadval).

Takroriy ekin sifatida parvarishlangan soyaning To'maris, Vilana hamda Slaviya navlarini sug'orish oldi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-75-65% tartibida an'anaviy usulda sug'orilgan 1,4,7 variantlarda don tarkibidagi moy miqdori 24,3-21,2-23,3% ni, sug'orish oldi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-

75-65% tartibida egiluvchan quvurlar yordamida sugʻorilgan 2,5,8-variantlarda don tarkibidagi moy miqdori 24,6-21,4-23,4% ni, CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibida sugʻorilgan 3,6,9-variantlarda esa 25,1-22,3-24,1% ni tashkil qildi.

Eng yuqori moydorlik darajasi 25,1; 22,3 va 24,1% soyani sugʻorish oldi tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibida tomchilatib sugʻorilganda kuzatilgan.

4-jadval.

Soya navlarining hosildorligiga sugʻorish usullarini taʼsiri, s/ga

Variant raqami	Soya navlari	Sugʻorish usullari	Sugʻorish tartibi CHDNSga nisbatan, %	Yillar boʻyicha hosildorlik			Yillar boʻyicha oʻrtacha hosildorlik, s/ga	Qoʻshimcha hosil, s/ga
				2020 y	2021 y	2022 y		
1	Toʻmaris	Egatlab sugʻorish	70-75-65	14,7	15,1	16,2	15,3	-
2		Egiluvchan quvur yordamida sugʻorish	70-75-65	15,7	15,7	16,5	16,0	0,7
3		Tomchilatib sugʻorish	70-80-70	19,9	20,0	20,6	20,2	4,9
4	Vilana	Egatlab sugʻorish	70-75-65	16,4	16,5	17,0	16,6	-
5		Egiluvchan quvur yordamida sugʻorish	70-75-65	17,5	17,7	17,8	17,7	1,1
6		Tomchilatib sugʻorish	70-80-70	23,3	22,2	22,9	22,8	6,2
7	Slaviya	Egatlab sugʻorish	70-75-65	17,4	17,3	18,6	17,8	-
8		Egiluvchan quvur yordamida sugʻorish	70-75-65	18,1	18,3	19,3	18,6	0,8
9		Tomchilatib sugʻorish	70-80-70	23,9	23,6	23,5	23,7	5,9

NSR_{0,5}; [s/ga] **0,33** **0,49** **0,39**

S_x; [%] **0,11** **0,17** **0,13**

Soyaning Toʻmaris, Vilana hamda Slaviya navlarini parvarishlashda sugʻorish oldi tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-80-70%, sugʻorishni tomchilatib sugʻorish texnologiyasi yordamida amalga oshirilgan variantlarda boshqa sugʻorish usullari qoʻllanilgan variantlarga nisbatan don moydorligi 0,5-1,1% gacha yuqori va oqsil miqdori esa 0,3-1,5% gacha kam boʻlishi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Soya navlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi hamda ishlab chiqarish sharoitida olib borilgan tadqiqotlar”** deb nomlangan oltinchi bobida takroriy ekin sifatida parvarishlangan soya navlarini sugʻorish usullariga koʻra iqtisodiy samaradorligi hamda ishlab chiqarish sharoitida amalga oshirilgan tajriba natijalari toʻgʻrisida maʼlumotlar keltirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlariga koʻra, eng yuqori iqtisodiy samaradorlik takroriy ekilgan soyaning Toʻmaris, Vilana hamda Slaviya navlarini parvarishlashda sugʻorish oldi tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibida, sugʻorishni

tomchilatib sug'orish usuli asosida amalga oshirilishi natijasida sug'orishni an'anaviy hamda egiluvchan quvurlar yordamida amalga oshirilganga nisbatan 4,2-6,2 sentnergacha qo'shimcha don hosili olinib, sof foyda 448,0-1678,3 ming so'm ga, rentabellik darajasi 16,2% ga yuqori bo'lganligi aniqlangan.

XULOSALAR

1. Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida kuzgi bug'doydan keyin soyaning yangi navlarini parvarishlashda o'simlik ildiz tizimining asosiy tarqalish chuqurligini hisobga olgan holda parvarishlashda tomchilatib sug'orish usuli asosida sug'orishni 30-50-50 sm qatlamlarda namlash maqbul ekanligi aniqlandi.

2. Soya navlarini yetishtirishda sug'orishni CHDNSga nisbatan 70-80-70% tartibda, tomchilatib sug'orish usuli (TSU) asosida olib borilganda tuproqning hajm massasi haydov (0-30 sm) qatlamda nazorat nisbatan To'maris navi parvarishlangan maydonda 0,026-0,036 g/sm³ gacha, Vilana navi parvarishlangan maydonda 0,038-0,048 g/sm³ gacha, Slaviya navi parvarishlangan maydonda esa 0,029-0,036 g/sm³ gacha kamayishi, g'ovakligini esa navlarga mos ravishda 1,0-1,3; 1,4-1,8; 1,1-1,4% gacha ortib yaxshilanishiga erishildi.

3. Soya navlarini parvarishlashda sug'orishni tomchilatib sug'orish usuli (TSU) yordamida amalga oshirilganda sug'orish oldi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-80-70% tartibda, 2-7-2 tizimda 11 marta o'tkazish an'anaviy usullarda sug'orilganga nisbatan mavsumiy suv miqdorini soyaning To'maris navida 766,3-876,4 m³/ga gacha, soyaning Vilana navida 727,6-910,4 m³/ga gacha hamda soyaning Slaviya navida 794,3-940,1 m³/ga gacha kam bo'lishi kuzatildi.

4. Soya navlarini parvarishlashda sug'orishni tomchilatib sug'orish usuli (TSU) yordamida 2-7-2 tizimda, 11 marta sug'orilganda an'anaviy usullarda sug'orilganga nisbatan 1 sentner hosil olish uchun sarflangan suvning miqdori soyaning To'maris navida 63,0-82,6 m³ gacha, soyaning Vilana navida 58,4-79,0 m³ gacha hamda soyaning Slaviya navida 54,6-75,2 m³ gacha kam bo'lganligi aniqlandi.

5. Soyaning To'maris, Vilana hamda Slaviya navlarini parvarishlashda sug'orish oldi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-80-70% tartibida, sug'orishni tomchilatib sug'orish usuli yordamida amalga oshirilganda boshqa sug'orish (an'anaviy hamda egiluvchan quvurlar yordamida) usullari qo'llanilganga nisbatan o'simlikning ko'chat qalinligi yillar mobaynida 12,7-16,4 ming donaga yuqori bo'lishiga erishildi.

6. Soyaning To'maris, Vilana va Slaviya navlarini parvarishlashda sug'orishni tomchilatib sug'orish usuli yordamida amalga oshirilganda sug'orish oldi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-80-70% tartibida, boshqa sug'orish usullari qo'llanilganga nisbatan o'simlikning bo'yi 0,9-9,1 sm gacha, hosil shoxlari 0,1-0,3 donagacha, dukkaklar soni 0,5-3,2 donagacha, bitta o'simlikdagi don soni 0,9-4,6 donagacha, 1000 dona don vazni esa 1,5-6,5 grammgacha yuqori bo'lganligi aniqlandi.

7. Soyaning To'maris, Vilana hamda Slaviya navlarini parvarishlashda sug'orishni tomchilatib sug'orish usuli asosida sug'orish oldi tuproq namligi

CHDNS ga nisbatan 70-80-70% tartibda amalga oshirilishi natijasida sug'orishni an'anaviy hamda egiluvchan quvurlar yordamida amalga oshirilganga nisbatan 4,2-6,2 sentnergacha qo'shimcha don hosili olishga, don moydorligi 0,5-1,1% gacha yuqori bo'lishiga erishildi.

8. Soyaning To'maris, Vilana hamda Slaviya navlarini parvarishlashda sug'orishni tomchilatib sug'orish usuli asosida sug'orish oldi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-80-70% tartibida amalga oshirilishi natijasida sug'orishni an'anaviy hamda egiluvchan quvurlar yordamida amalga oshirilganga nisbatan so'f foyda 448,0-1678,3 ming so'mgacha, rentabellik darajasi 1,2-16,2% gacha yuqori bo'lishi qayt qilindi.

9. Andijon viloyatining sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida suvdan samarali foydalanish va soya hosildorligini oshirish maqsadida o'simlik ildiz tizimining asosiy tarqalish chuqurligini hisobga olgan holda tomchilatib sug'orish texnologiyasi asosida tuproqni 30-50-50 sm qatlamlarini namlash, soyaning "To'maris", "Vilana" va "Slaviya" navlarini, tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-80-70% tartibida, 2-7-2 tizimda, rivojlanish davri bo'yicha (gullashgacha davrida 2-marta sug'orish me'yori 131 m³/ga dan, gullash-hosil to'plash davrida 7-marta 116 m³/ga me'yorda, pishish davrida 2-marta 132 m³/ga me'yorda) jami 11-martagacha, mavsumiy 1313-1320 m³/ga me'yorda suv sarflab sug'orish tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО–ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТ СЕЛЕКЦИИ, СЕМЕНОВОДСТВА И АГРОТЕХНОЛОГИИ
ВЫРАЩИВАНИЯ ХЛОПКА**

**АНДИЖАНСКИЙ ИНСТИТУТ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА И
АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

ХОДЖАЕВА НОДИРА ОДИЛОВНА

**ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАЗЛИЧНЫХ СПОСОБОВ
ОРОШЕНИЯ ПРИ ВЫРАЩИВАНИИ НОВЫХ СОРТОВ СОИ В
КАЧЕСТВЕ ПОВТОРНОЙ КУЛЬТУРЫ. (НА ПРИМЕРЕ СВЕТЛЫХ
СЕРОЗЕМОВ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

06.01.02 – Мелиорация и орошаемое земледелие

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2022.3.PhD/Qx953

Диссертация доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам выполнена в Андijanском институте сельского хозяйства и агротехнологий.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице научного совета (www.psyuvaiti.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: Исатов Анваржан
доктор сельскохозяйственных наук, профессор.

Официальные оппоненты: Норкулов Усмонкул,
доктор сельскохозяйственных наук, профессор
Камидов Бахтиёр Султанович,
кандидат сельскохозяйственных наук, профессор

Ведущая организация: Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства Национальный исследовательский университет Бухарский институт управления природными ресурсами.

Защита диссертации состоится «18» 03 2025 года 9⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 при Научно – исследовательском институте селекции, семеноводства и агротехнологии выращивания хлопка. (по адресу: 111202, Ташкентская область, Кибрайский район, с.с.г. Ботаника, ул УзПИТИ, НИИССАВХ Тел: (+99878)150-62-84; факс: (+99871)150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института селекции, семеноводства и агротехнологии выращивания хлопка (зарегистрирована № 186). (Адрес: 111202, Ташкентская область, Кибрайский район, с.с.г. Ботаника, ул УзПИТИ, НИИССАВХ Тел: (+99878)150-62-84; факс: (+99871)150-61-37.)

Автореферат диссертации разослан «5» 03 2025 года
(реестр протокола рассылки № 1 от «5» 03 2025 года.)


Ш.Н.Нурматов,
Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней,
д.с.х.н., профессор

Ф.М.Хасанова,
Учёный секретарь научного совета по
присуждению учёных степеней,
к.с.х.н., профессор

Ж.Х.Ахмедов,
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
учёных степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

